



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2021 йил «27» август

VI-35-81-8-0-K/21

Сурхондарё вилояти ҳокимлиги

### **2021-yil Davlat dasturining 118-bandi ijrosi bo'yicha "Yagona darcha" tamoyili bo'yicha fermer, dehqon xo'jaliklari, agroklastarlarga asoslangan sifatli agroxizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar xususida viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari U.To'rayevning hisoboti to'g'risida**

Viloyatda "Yagona darcha" tamoyili bo'yicha fermer, dehqon xo'jaliklari, agroklastarlarga asoslangan sifatli agroxizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar xususida viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari U.To'rayevning hisobotini xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi yig'ilishida eshitilganligini va bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining yig'ilishi 2021-yil 12-avgust kuni ZOOM dasturi orqali o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining o'rinbosari U.Turapov, viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i M.Murodov "Yagona darcha" tamoyili bo'yicha fermer, dehqon xo'jaliklari, agroklastarlar, kooperatsiyalar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga innovatsiyalarga asoslangan sifatli agroxizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'ysin.

3. Viloyat hokimining o'rinbosari U.Turapov, viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i M.Murodov tumanlar hokimlari bilan birgalikda:

ilm-fan yutuqlari asosida milliy agroxizmatlar tarmog'ini yo'lga qo'yish va rivojlantirish;

agrosanoat majmuiga kiruvchi davlat, xo'jalik va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning yuzdan ortiq xizmatlarini "yagona darcha" tamoyili asosida agroxizmatlar markazlari orqali tashkil etish;

zamonaviy agroxizmatlar ko'rsatishni kengaytirish maqsadida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini keng joriy etish;

agroxizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish maqsadida "raqamli agroxizmatlar" axborot tizimini ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini yanada rivojlantirish maqsadida "daladan iste'molgacha" tamoyili asosida xalqaro sifat standart va sertifikatlari joriy etish choralari ko'rsin.

4. Toshkent davlat agrar universiteti Termiz filiali (A.Jo'rayev)ga Toshkent davlat agrar universiteti Termiz filiali negizida tashkil etiladigan Termiz agrotexnologiyalar va innotvasion rivojlanish instituti o'qituvchilari va talabalari ilm-fan yutuqlari asosida milliy agroxizmatlar tarmog'ini yo'lga qo'yib, uni rivojlantirilishiga ko'maklashish, xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi sohasi uchun kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha yangi tizim joriy etishni yo'lga qo'yish vazifasi yuklatilsin.

5. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (Z.To'rayev), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Yu.Nurmanov), "Surxondaryo" viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur loyihalarni amalga oshirishdan maqsad va uning viloyat va tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to'g'risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakunida tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Artaqov) zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Кенгаш раиси**



**Bobolov T.A.**